

IQTISODIY MADANIYATNING IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Xudoyqulov To'ra Musurmonovich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Annotatsiyada iqtisodiy madaniyatning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilindi. Iqtisodiy madaniyat tushunchasining mazmuni, uning oila va jamiyat rivojlanishidagi o'rni hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanish omillari yoritildi. Aholida iqtisodiy ong, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning roli baholandi. Iqtisodiy madaniyatning tadbirkorlik faoliyati, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy qarorlar qabul qilishga ta'siri asoslandi. Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida iqtisodiy madaniyatning shakllanish bosqichlari ko'rib chiqildi. Olingan natijalar asosida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy ong, iqtisodiy ta'lim, tadbirkorlik, qadriyatlar, iqtisodiy xulq-atvor, bozor iqtisodiyoti

Аннотация

В аннотации было проанализировано влияние экономической культуры на экономическое развитие. Раскрыто содержание экономической культуры, её роль в развитии семьи и общества, а также факторы формирования в условиях рыночной экономики. Оценена роль системы образования и социальной среды в формировании экономического сознания, знаний и навыков населения. Обосновано влияние экономической культуры на предпринимательскую деятельность, рациональное использование ресурсов и принятие экономических решений. Рассмотрены исторические и современные подходы к формированию экономической культуры. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по её развитию.

Ключевые слова: экономическая культура, экономическое сознание, экономическое образование, предпринимательство, ценности, экономическое поведение

Abstract

The abstract analyzed the impact of economic culture on economic development. The content of economic culture, its role in the development of family and society, and the factors of its formation under market economy conditions were examined. The role of the education system and social environment in shaping economic awareness, knowledge, and skills of the population was assessed. The influence of economic culture on entrepreneurial activity, efficient resource use, and economic decision-making was substantiated. Historical and modern approaches to the formation of economic culture were considered. Based on the findings, practical recommendations for its development were proposed.

Keywords: economic culture, economic consciousness, economic education, entrepreneurship, values, economic behavior

KIRISH

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining qaror topishi va bozorga xos iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishi hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan yangicha iqtisodiy islohotlar zahirida kishilar ongi va tafakkurida tub o‘zgarishlar vujudga kelmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda kishilar uchun bozor qonuniyatlari asosida faoliyat yuritish, tadbirkorlik va biznes bilan shug‘ullanish, mablag‘lardan tejamli va unumli foydalanish, oilaviy xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash vazifalari kundalik hayotining bir qismiga aylanib bormoqda. Bunday sharoitlarda kishilarning jamiyatning faol a‘zosi ga aylanishi uchun unda qanchalik iqtisodiy madaniyat va tafakkurning shakllanganligi muhim rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-mafkuraviy taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi, kishilarda mulkdorlik madaniyatini shakllantirish va ishbilarmonlik muhitining shakllanishi, iqtisodiy resurslardan tejamli va maqsadli foydalanish, investitsiyalarni to‘g‘ri va samarali yo‘naltirish, mamlakat iqtisodiyotini tom ma’noda yuksaltirish, aholida iqtisodiy bilimlar va tafakkurning qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq.

Kelgusi yillarda O‘zbekiston hududlarida bozor xizmatlari barqaror, ammo notekis rivojlanish bosqichiga kiradi. Yirik iqtisodiy markazlar yetakchi o‘rinni saqlab qoladi, qolgan hududlarda esa xizmatlar sektori ichki talab va davlat siyosati ta’sirida bosqichma-bosqich kengayib boradi. Mazkur prognoz hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy ong va qarashlar - kishilarning mamlakatda kechayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy voqea hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilim va tushunchalar, iqtisodiy xatti-harakat majmuidan iborat bo‘lib, uning asosida iqtisodiy madaniyat paydo bo‘ladi.

Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy sohaga oid qadriyatlar, me‘yorlar, bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli jihatlarni qamrab oladi. Bu bizning pul, ish, iste‘mol, investitsiya va moliyaviy qarorlarga bo‘lgan munosabatimizni belgilaydi. Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy tanlovlar qabul qilish jarayonida namoyon bo‘ladi va iqtisodiy xatti-harakatlarni belgilaydi.

Iqtisodiy madaniyat ta’lim, oila tarbiyasi, ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalarining ta’siri jarayonida shakllanadi. Iqtisodiy madaniyat zamonaviy jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, kundalik hayotimiz va ijtimoiy munosabatlarimizning ko‘p jabhalariga ta’sir qiladi.

Aholida yuksak darajada iqtisodiy madaniyatni shakllantirish asosida yashash turmush darajalarining sifat jihatidan yaxshilanishiga va bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanayotgan kambag‘allik muammosini kamaytirish masalalari ijobiy hal qilinishi o‘z isbotini topmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlarining jamiyatga jadal tatbiq etilishi, uning asl mohiyatini anglash va ro‘yobga chiqarish aholida iqtisodiy ong va madaniyatning shakllanganligi iqtisodiy bilimlarning qanchalik o‘zlashtirilganligi bilan uzviy bog‘liq.

METODOLOGIYA


Aholining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan, miqdor va sifat, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, mantiqiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy madaniyat kategoriyasining paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga borib taqalib, tovar xo‘jaligining yuzaga kelishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi, ichki va tashki bozorlarning kengayishi, pul munosabatlarining intensivlashuvi va savdo aloqalari rivojlanish davriga to‘g‘ri keladi. Shuningdek yurtimizda iqtisodiy madaniyatning shakllanishida oilaviy qadriyat va an‘analar muhim rol o‘ynab avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Oilada ortiqcha isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, tejab-tergab ishlatish, halol rizq topish va halol mehnat qilish qadriyatlari ustun darajada avlodlarga singdirilib borilgan.

Keyingi paytlarda iqtisodiy madaniyat inson taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida madaniyatning boshqa turlari bilan tobora uyg‘unlashmoqda. Xususan, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ilmiy, diniy va badiiy madaniyatlarning asosi bo‘lganligi tufayli ularning xarakteri va taraqqiyotini belgilab beradi. Ayni zamonda ushbu madaniyat turlari nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, ular iqtisodiy madaniyatga faol ta‘sir o‘tkazadi.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti tomon yo‘l tutishi aholida bozor munosabatlariga xos fikrlash tarzi shakllanishini talab qiladi. Bu iqtisodiy madaniyatning asosi bo‘lgan iqtisodiy ta‘limni ham muvofiq ravishda isloh qilishni, negaki barcha demokratik bozor islohotlarni amalga oshirish o‘z-o‘zidan harakatga kelayotgan jarayon emas, balki ularni rivojlantirish ko‘pgina hollarda yoshlarimizning iqtisodiy bilim saviyasining yuksalish darajasiga ham bog‘liqdir.



1-rasm. Iqtisodiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari¹

Bozor munosabatlari xalqimiz va vatanimiz uchun butunlay yangi tushunchalar emasdi. Osiyo va Yevropaning savdo yo‘li - Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan o‘zbek zamini asrlar osha Sharq va G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib keldi. O‘zbekiston o‘zining ana shu tarixiy va an‘anaviy o‘rnini egallashi uchun yurtimizda zamonaviy bozor munosabatlarini va aholi o‘rtasida esa bozor madaniyatini shakllantirish lozim edi. Bu esa oson ish emasdi. Zero, kommunistik mafkura

¹ Muallif ishlanmasi


hukmronlik qilgan sovet zamonida - yetmish yil mobaynida xalqimiz haqiqiy bozor qadriyatlaridan butunlay uzoqlashtirilgan, odamlardagi bozor munosabatlariga xos tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va tadbirkorlik soʻndirilgan, boqimandalik kayfiyati chuqurlashib ketgan edi [1].

Iqtisodiy madaniyat mazmun mohiyatiga koʻra keng maʼnoda iqtisodiy faoliyatda qabul qilingan meʼyoriy qoidalar va qiymatlarni shaxs tomonidan butun sifatida idrok etishini anglatib, iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy koʻnikmalar, iqtisodiy qiymatlar va iqtisodiy meʼyorlardan iborat boʻlganligi bois jamiyatda oʻrnatilgan ustama uning holatiga taʼsir koʻrsatadi (1-rasm).

Iqtisodiy taʼlim-tarbiya masalasiga sobiq sovet davrida yetarli eʼtibor berilmagan, iqtisod fanining asoslari maktablarda yetarlicha oʻrganilmasdi. Oʻrta umum taʼlim maktablari va oʻrta maxsus taʼlimda iqtisodiyot ilmi alohida fan sifatida shakllanmagan, iqtisodiy mavzular va tushunchalar yuqori sinflarda hozirgi kundagi koʻplab fanlarni oʻzida birlashtirgan “Jamiyatshunoslik” fani tarkibidan joy olgan, atigi bir necha soatgagina moʻljallangan, iqtisodiyotning ayrim jihatlarigina oʻrgatilar va bu maktab oʻquvchilarining iqtisodiy madaniyati rivojlanishiga yetarlicha hissa qoʻsha olmasdi.

Bu paytlarda iqtisod sohasida ish olib boruvchi kadrlarigina iqtisodiy bilim egallashi imkoniyatiga ega boʻlgan xolos. Iqtisodiyotda intensiv rivojlanish emas balki, ekstensiv rivojlanish sari yoʻl tutilgan, sifat oʻzgarishlarga emas miqdor oʻzgarishlarga koʻproq eʼtibor qaratilgan. Ish haqi qatʼiy belgilangan smeta asosida amalga oshirilib, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqargan edi. Mulkning davlat tasarrufida boʻlishi resurslardan tejamsiz va ayovsiz foydalanishga olib kelgan. Tadbirkorlik qobiliyatining boʻgʻib qoʻyilishi va ragʻbatlantirilmasligi iqtisodiy tafakkurning susayishiga olib keldi [2].

Iqtisodiy madaniyat taʼlim va tarbiya, oila tarbiyasi, diniy va dunyoviy eʼtiqodlar ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalari kabi omillarning taʼsiri jarayonida shakllanadi. Ushbu omillar tizimli ravishda taʼsir koʻrsatib, jamiyatning oʻziga xos madaniy qiyofasini shakllantiradi (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiy madaniyatning shakllanishiga taʼsir etuvchi omillar¹

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Iqtisodiy ta'lim-tarbiya yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularni mustaqil, ongli, iqtisodiy jihatdan savodli inson sifatida shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, yosh avlodda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish orqali ularni ongli, faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli ta'lim tizimida iqtisodiy tarbiyaga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda.

Iqtisodiyot so'zining mazmuni "iqtisod qilish" ma'nosini anglatadi. Iqtisod so'zining o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "sarf-xarajatlarda tejamkorlik" demakdir. Mashhur ma'rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniy iqtisodga shunday ta'rif beradi: "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas"[3]. Inson yaratilibdiki, mehnatini yengillashtirish, hayot kechirishi uchun zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirishga harakat qiladi. Mehnat qilishning o'zi ham tirikchilik o'tkazishga qaratilgan.

Uzoq o'tmishdan shakllanib kelayotgan qadriyat, an'ana va urf-odatlarimiz aholimizning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular pul va ishga munosabatni shakllantiradi, moliyaviy xatti-harakatlar va qarorlarga ta'sir qiladi va iqtisodiy siyosatga ta'sir qilishi mumkin. Iqtisodiy qadriyatlarning rolini tushunish odamlarning va umuman jamiyatning iqtisodiy xatti-harakatlari va qarorlarini yaxshiroq tushunish va tahlil qilishga yordam beradi.

Iqtisodiy madaniyatni qadriyatlar va e'tiqodlar yig'indisi sifatida jamiyat hayotning iqtisodiy sohasi, ijtimoiy tizim va mulkchilik munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar, e'tiqodlar va me'yorlar to'plami sifatida e'tirof etish mumkin.

Iqtisodiy madaniyat kishilik jamiyatining ko'p asrlik mahsuli sifatida pul, boyluk, mehnat va iste'mol kabi iqtisodiy jihatlarni qanday qabul qilishini va qadrlashini belgilaydi. U ta'lim-tarbiya, ijtimoiylashuv va oila davrasida shakllanadi. Iqtisodiy madaniyat insonlarning iqtisodiy xulq-atvoriga jumladan, iste'mol, jamg'arma, investitsiyalar va iqtisodiy ishtirok to'g'risidagi qarorlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy madaniyatli kishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy baholash ham mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar iqtisodiy madaniyat iqtisodiy taraqqiyotning muhim institutsional omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Iqtisodiy bilim, qadriyat va xulq-atvor uyg'unligi jamiyatda resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy qarorlarning samaradorligi bevosita aholi iqtisodiy savodxonligi darajasiga bog'liq ekanligi kuzatildi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy madaniyatning oila, ta'lim tizimi va ijtimoiy muhit orqali shakllanishi uzluksiz va tizimli jarayon ekanligini ko'rsatdi.

Iqtisodiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi resurslardan samarasiz foydalanish, ortiqcha iste'mol va moliyaviy xatolarga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Aksincha, iqtisodiy ong va madaniyat rivojlangan sharoitda jamg'arma, investitsiya va tadbirkorlik faoliyati kengayib, iqtisodiy barqarorlikka

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surildi. Birinchidan, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'limni tizimli ravishda kuchaytirish, ayniqsa kundalik moliyaviy savodxonlik, byudjet yuritish va tadbirkorlik asoslariga oid mavzularni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu yosh avlodda ongli iqtisodiy xulq-atvorni erta bosqichda shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim tizimida iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan fanlararo yondashuvni joriy etish zarur. Iqtisodiyot, psixologiya va sotsiologiya integratsiyasi orqali iqtisodiy qarorlar qabul qilishning xulq-atvor omillarini chuqurroq o'rganish mumkin bo'ladi.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali iqtisodiy bilimlarni targ'ib qilishni kengaytirish lozim. Amaliy misollar, sodda tushuntirishlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kontent aholining iqtisodiy savodxonligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, oilada iqtisodiy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning moliyaviy mas'uliyati, tejamlilik va rejalashtirishga oid qarashlari farzandlarning iqtisodiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oilaviy moliya madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Beshinchidan, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish orqali iqtisodiy madaniyatni amaliy jihatdan mustahkamlash mumkin. Kichik biznes va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish va maslahat xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshiradi.

Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va jamiyatning umumiy rivojlanish darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xliyev N. O'zbek modeli taraqqiyotning tamoyillari. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014. - 8 b.

2. Ruziyev O.A. Rajabov O.D. Iqtisodiy tafakkurni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omiliga aylantirish davr talabi. // "Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali. 2025 №4 90-91 - b.

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: «Yoshlar nashriyoti uyi». 2018. - 97 b

4. Behzod A. Xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanish //Marketing Jurnal. - 2026. - №. 1.

5. Abduvoxidov B. Analysis OF Enhancing the Business Environment AND Developing Small Businesses in Uzbekistan Based on Foreign AND National Experience //Green Economy and Development. - T. 3. - №. 12. - C. 668554.

6. Axmedov A. Iste'molchi axloqining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri // CARJIS. 2024. №1. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/istemolchi-axloqining-ijtimoiy-madaniy-va-iqtisodiy-rivojlanishiga-tasiri>

7. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik/ AA Razzoqov, Sh. H. Tashmatov, N. T. O'rmonov; Mas'ul muharrir S.S.G'ulomov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 320 b. Tashmatov Sh. H., O'rmonov N. T.

8. Эргашходжаева Ш., Хакимов З. Тошкент вилояти имижини яратиш асосида инвестицион муҳит жозибadorлигини ошириш //хозяйство. - 2011. - №. 6. - С. 78.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**